

ODAM SAVDOSIGA QARSHI KURASHNING XALQARO HUQUQIY MASALALARI

INTERNATIONAL LEGAL ISSUES IN COMBATING HUMAN TRAFFICKING

МЕЖДУНОДНО-ПРАВОВЫ АСПЕКТЫ БОРЬБЫ С ТОРГОВЛЕЙ ЛЮДЬМИ

Sayuvdinova Nafisa Shoxo‘ja qizi

Jahon iqtisodiyoti va Diplomiya universiteti talabasi

Annotatsiya: *Odam savdosi bu insonlarning majburiy mehnatga, jinsiy ekspluatatsiya va boshqa zo‘ravonliklarni amalga oshirishi sotish, tashish, qabul qilish tushuniladi. 21-asrga kelib ham jiddiy xalqaro muammo bo‘lib qolmoqda ya’ni davr muammosidir. Odam savdosi qurbanlari odatda o‘z huquqlarini yo‘qotib, insoniy sharoitlardan bebahra bo‘ladilar. Ushbu jinoyatga qarshi kurashish nafaqat milliy qonunlar bilan, balki xalqaro huquqiy mexanizmlar va tashkilotlar doirasida ham amalga oshirilb kelmoqda. Xalqaro huquq bu muammoni bartaraf etish uchun bir qator huquqiy vositalar va normativ tizimlarni, normative huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Odam savdosiga qarshi kurashishning xalqaro huquqiy masalalari bir necha jihatlarga asoslanadi. Xalqaro huquqiy tizimlar odam savdosiga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi., chunki bu masala faqat milliy qonunlar bilan cheklanib qolmaydi, balki xalqaro hamkorlikni, kelishuvlarni va standartlarni talab qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Odam savdosi, xalqaro hujjatlar, inson huquqlari, BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), ekspluatatsiya, xalqaro tashkilotlar, transmilliy jinoyat.*

Annotation: *Human trafficking, including forced labor, sexual exploitation, and other forms of abuse, remains a serious international issue in the 21st century. Victims of human trafficking often lose their rights and are deprived of humane conditions. Combating this crime is carried out not only through national laws but also within the framework of international legal mechanisms and organizations. International law has developed several legal tools and normative systems to address this issue. It is widespread on a global scale. International legal systems play a crucial role in combating human trafficking since the issue requires not only national legislation but also international cooperation, agreements, and standards.*

Keywords: *human trafficking, international documents, human rights, UN (United Nations), exploitation, international organizations, transnational crime.*

Аннотация: *Торговля людьми, включая принудительный труд, сексуальную эксплуатацию и другие формы насилия, остаётся серьёзной международной проблемой в 21 веке. Жертвы торговли людьми часто теряют свои права и лишаются гуманного обращения. Борьба с этим преступлением ведётся не только*

на основе национального законодательства, но и в рамках международных правовых механизмов и организаций. Международное право разработало ряд правовых инструментов и нормативных систем для решения этой проблемы. Международно-правовые аспекты борьбы с торговлей людьми основываются на следующих ключевых моментах. Международные правовые системы играют важную роль в борьбе с торговлей людьми, поскольку проблема требует не только национального законодательства, но и международного сотрудничества, соглашений и стандартов.

Ключевые слова: торговля людьми, международные документы, права человека, ООН (Организация Объединённых Наций), эксплуатация, международные организации, транснациональная преступность.

KIRISH

Odam savdosi, ya’ni insonlarni savdo qilish, ekspluatatsiya maqsadida majburiy mehnatga yoki jinsiy ekspluatatsiyaga jalb etish, hozirgi kunda butun dunyo bo’ylab haligacha davom etayotgan eng dolzarb va xavfli ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu jinoyat jismoniy va psixologik ta’sir o’tkazish orqali zarar yetkazish bilan bog’liq bo’lib, global ijtimoiy tizimga ham salbiy ta’sir ko’rsatadi. Odam savdosi, transmilliy jinoyatlar sirasiga kiradi va bu global miqyosda tizimli va keng tarqalgan bir muammo sifatida ko’rinadi. Bugungi kunda bu jinoyat global darajada davlatlar, xalqaro tashkilotlar, huquqni muhofaza qilish organlari va huquqshunoslarni birlashishini talab qiladi. Odam savdosiga qarshi kurashish, birinchidan, huquqiy mexanizmlarni yaratish va mustahkamlashni talab qiladi. Xalqaro huquq, inson huquqlari, va jinoyat huquqi sohalarini birlashtirgan huquqiy mexanizmlar orqali odam savdosining oldini olish, bartaraf etish va unga qarshi kurashishda samarali natijalarga erishish mumkin. Shu o’rinda BMT va uning maxsus tashkilotlari, shuningdek, boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning o’rni nihoyatda muhimdir. Ushbu tashkilotlar orqali qabul qilingan konvensiyalar, protokollar va xalqaro huquqiy qarorlar davlatlarni majburiy ravishda odam savdosiga qarshi kurashishda faol ishtirok etishga undaydi. Xalqaro huquq nuqtai nazaridan, odam savdosiga qarshi kurashishning eng muhim jihatlaridan biri — odam savdosiga oid xalqaro shartnomalar va protokollarni bajarishdir. 2000-yilda BMT tomonidan qabul qilingan “Odam savdosiga qarshi protokol” va “Odam savdosining ayollarga va bolalarga nisbatan ekspluatatsiyasiga qarshi protokol” bu sohadagi eng muhim huquqiy hujjatlardan biridir. Bu protokollar, shuningdek, odam savdosiga jalb etilgan qurbanlarni himoya qilish, ularga huquqiy yordam ko’rsatish va ularning huquqlarini tiklashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni o’z ichiga oladi. Shunday qilib, odam savdosiga qarshi kurashish, nafaqat huquqiy, balki keng ko’lamli va kompleks yondashuvni talab etuvchi masala bo’lib, global hamkorlik, davlatlarning siyosiy iroda va xalqaro huquqning samarali amalga oshirilishi orqali imkoniyatlar yaratiladi. Odam savdosiga qarshi samarali kurashish uchun barcha davlatlar, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyati birlashgan holda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash, inson

huquqlarini hurmat qilish va barcha shakldagi ekspluatatsiyaning oldini olish uchun birgalikda ish olib borishlari kerak,

Asosiy xalqaro huquqiy hujjatlar

Inson huquqlari bo‘yicha konvensiya odam savdosiga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini ta’minlaydi. Konvensiyaning odam savdosiga qarshi kurashga bag‘ishlangan qo‘srimcha protokoli ham mavjud. Odam savdosi, ayniqsa ayollar va bolalar savdosining oldini olish, uni bartaraf etish va jazolash protokoli (Palermo protokoli) – ushbu sohada eng muhim xalqaro hujjat hisoblanadi. Protokolda odam savdosining quyidagi jihatlari belgilangan. Odam savdosining ta’rifi va uning turli ko‘rinishlari, jumladan jinsiy ekspluatatsiya, majburiy mehnat, organ savdosi. Shu jumladan, davlatlarning majburiyatlari, odam savdosi qurbanlarini himoya qilish, ularning reabilitatsiyasi va jinoyatchilarni jazolash. Transmilliy jinoyatlar bilan kurashda davlatlararo hamkorlikni kuchaytirish. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro konvensiyalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, odam savdosiga qarshi kurashda BMTning Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro konvensiyalari ham muhim rol o‘ynaydi: 1951-yilgi Qochqinlar maqomi to‘g‘risidagi konvensiya odam savdosidan qochgan shaxslarning himoyasini nazarda tutadi. 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ham insonning qadr-qimmatini poymol etmaslik, uni barcha vositalar bilan himoya qilinishi ta’kidlangan.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) konvensiyalari

XMT odam savdosining mehnat ekspluatatsiyasi bilan bog‘liq jihatlariga qarshi kurashadi, uni oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Shu jumladan: Majburiy mehnat to‘g‘risidagi konvensiya (№29, 1930-yil) va Bolalar mehnatini eng yomon shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya (№182, 1999-yil) odam savdosi qurbanini aylangan jabrlangan shaxslarni himoya qilishga qaratilgan. Odam savdosiga qarshi kurashda davlatlararo hamkorlik muhim ahamiyatga ega, chunki bu jinoyat ko‘pincha bir nechta davlat hududlarida amalga oshiriladi. Shu maqsadda quyidagi mexanizmlar ishlab chiqilgan. Interpol va Europol faoliyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ushbu tashkilotlar odam savdosi jinoyatlarini aniqlash va ularga qarshi kurashda samarali xalqaro ma'lumot almashinuvini tashkil etadi. Hududiy tashkilotlarning roli ham juda muhim. Masalan, Yevropa Ittifoqi odam savdosiga qarshi kurash bo‘yicha keng qamrovli strategiyalarni hammavaqt amalga oshiradi, shu jumladan qurbanlarni himoya qilish dasturlari va chegaralarda xavfsizlik choralarini kuchaytirishni bajaradi.

Bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lgan odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashish borasida O‘zbekistonda ham qator chora-tadbirlar va islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga, odam savdosi transmilliy, ya’ni hudud va chegara tanlamaydigan jinoyat ekanligi hisobga olgan holda, yurtimiz 2003-yil 12-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1950-yilda qabul qilingan «Odam savdosi va fohishalikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to‘g‘risida»gi Konventsiyaga a’zo bo‘ldi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2000-yil 15-noyabrdagi rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan «Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risida»gi Konvensiya, shuningdek, odam savdosi, ayniqsa, ayollar va

bolalarni sotishning oldini olish, unga chek qo‘yish va buning uchun jazolash to‘g‘risidagi qo‘sishma protokol ham ratifikatsiya qilindi [1].

Odam savdosi qurbanlarini himoya qilish

Xalqaro huquq odam savdosi qurbanlarining huquqlarini himoya qilishni asosiy vazifa sifatida belgilaydi. Palermo protokoliga ko‘ra, davlatlar odam savdosi qurbanlariga quyidagi yordamlarni ko‘rsatishi lozim. Jinoiy faoliyatdan jabrlangan shaxslarning reabilitatsiyasi va reintegratsiyasi. Qurbanlarga huquqiy yordam ko‘rsatish, jumladan, sud jarayonlarida himoya qilish. Odam savdosidan jabr ko‘rgan bolalar va ayollarga maxsus yordam dasturlarini amalga oshirish.

I.Karabayev odam savdosi jinoyatining kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish yo‘llarini tahlil qilgan. N.A.Korsikova odam savdosi allaqachon uyushgan jinoyatchilikning bir turiga aylangan, deb yozadi [4]. I.Abdushukurova va B.Samadovlar odam savdosiga qarshi kurash maqsadida O‘zbekistonda amalga oshirilgan chora-tadbirlar haqida fikr yuritishgan [2]. I.K.Abdushukurova odam savdosi tushunchasiga izoh berib, xotin-qizlar savdosining bugungi kundagi holati, ushbu jinoyatga qarshi kurash va jabrdiydalarga ko‘rsatilgan yordam haqida ma’lumot keltirgan. Jumladan, 2014-2017 yillarda ekspluatatsiya shakllari bo‘yicha aniqlangan odam savdosi jabrdiydalarining sonini diagramma ko‘rinishida ko‘rsatgan[3]. Huquqni qo‘llash va monitoring mexanizmlari. Davlatlar xalqaro majburiyatlarni bajarish uchun samarali huquqni qo‘llash tizimlarini joriy etishi lozim. Bu jarayonda quyidagilar milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish muhim.

Ushbu vaziyatga olib keluvchi omillarni sanab o‘tishimiz joiz.

1.Texnologiyalar va odam savdosi

Zamonaviy texnologiyalar odam savdosining yangi shakllarini yuzaga keltirib chiqardi. Internetda g‘ayriqonuniy xizmatlar va odamlarning ekspluatatsiyasi uchun platformalar yaratilmoqda. Misol uchun, ijtimoiy tarmoqlar odam savdosi qurbanlarini aldash,ishontirish, sotish yoki ekspluatatsiya qilish uchun vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, texnologiyalar jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish uchun ham xizmat qiladi. Sun‘iy intellekt odam savdosi qurbanlarini aniqlashda foydalanilayotgan bo‘lsa, blokcheyn texnologiyasi transmilliy jinoyatchilikda pul oqimini kuzatishda muhim vositaga aylanmoqda. Shu sababdan, xalqaro huquqiy tizim texnologiyalarni kuzatish va boshqarish bo‘yicha yangi yondashuvlarni ishlab chiqilishi kerak.

2. Davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikning muhimligi

Odam savdosi global muammo hisoblanib, unga qarshi kurashish faqatgina bitta davlat doirasida amalga oshirib bo‘lmaydi. Bu jinoyatning transmilliy tabiatuni xalqaro miqyosda samarali kurashish uchun davlatlararo hamkorlikni talab qiladi. Masalan, INTERPOL va BMTning odam savdosiga qarshi tashabbuslari muhim o‘rin tutadi. Ammo bu jarayon ko‘pincha byurokratik to‘siqlar, moliyaviy resurslarning yetishmasligi va siyosiy muvozanatsizlik tufayli samarasiz bo‘lib qoladi. Davlatlar o‘rtasida axborot almashinuviga tizimini yaxshilash va qo‘shma tergov guruhalini tashkil qilish xalqaro huquqiy masala sifatida e’tiborga olinishi maqsadga muvofiq.

3. Davlatlarning javobgarligi va xalqaro majburiyatlari

Davlatlar o’z hududida odam savdosi qurbanlarini himoya qilish va jinoyatchilarni javobgarlikka tortish uchun xalqaro konvensiyalarni bajarishi shart. BMTning odam savdosiga qarshi kurash bo‘yicha Palermo Protokoli juda muhim hisoblanadi.Ushbu hujjat odam savdosini oldini olish,bartaraf etish, jabrlanganlarni himoya qilish va jinoyatchilarni jazolash majburiyatini yuklaydi. Ammo ko‘plab davlatlar bu protokollarning talablarini to‘liq bajara olmayapti. Ayrim mamlakatlarda korrupsiya va huquqni muhofaza qilish organlarining yetarli darajada ishlamasligi odam savdosiga qarshi kurashni qiyinlashtiradi. Shu bois, xalqaro hamjamiyat davlatlarni o’z majburiyatlarini bajarishga undovchi yangi mexanizmlarni ishlab chiqishi lozim.

4.Mehnat ekspluatatsiyasi va xalqaro huquqiy choralar

Odam savdosining eng keng tarqalgan shakllaridan biri mehnat ekspluatatsiyasidir. Ayniqsa, migrant ishchilar va ayollar ko‘pincha ish beruvchilar tomonidan aldov yo‘li bilan ishlashga majburlanadi. Xalqaro mehnat tashkilotining (ILO) ma’lumotlariga qaraganda, har yili millionlab odamlar majburiy mehnatga jalb etiladi. Shu sababli, xalqaro huquqiy hujjatlar, jumladan, Mehnatning yomon shakllarini yo‘q qilish to‘g‘risidagi konvensiyalarni amalga oshirish muhimdir. Bu jarayonda davlatlar mehnatga doir qonunchilikni takomillashtirish va ishchilarni himoya qilish tizimini samarali rivojlantirishi lozim.

5.Qurbonlarni reabilitatsiya qilish va qayta integratsiya

Odam savdosi qurbanlarini faqat jinoyatchilikdan xalos qilish yetarli bo‘lmaydi. Ular uzoq muddatli reabilitatsiya jarayoniga muhtoj bo‘lishadi, chunki bu jinoyatning psixologik va ijtimoiy oqibatlari juda chuqurroqdir. Xalqaro huquqiy tizim qurbanlar uchun reabilitatsiya markazlarini tashkil etish shuningdek, ularni ijtimoiy hayotga qayta integratsiya qilishga yordam berishi joiz. Ko‘plab davlatlarda bu borada maxsus dasturlar haligacha ishlab chiqilmagan va moliyaviy jihatdan yetarli emas. Qurbonlarning huquqiy va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish xalqaro huquqiy majburiyat sifatida belgilanishi o‘rinli.

6.Odam savdosiga qarshi profilaktika va ta’lim dasturlari

Odam savdosini bartaraf etishda profilaktika choralari juda muhimdir. Ta’lim va xabardorlikni oshirish orqali odamlar, ayniqsa, zaif guruhlar, xavf haqida oldindan ma’lumotga ega bo‘lishi mumkin. Davlatlar fuqarolarni odam savdosi xavfi haqida xabardor qilish uchun maxsus kampaniyalar va dasturlarni yo‘lga qo‘yishi zarur. Xuddi shunday ta’lim dasturlari xalqaro darajada koordinatsiya qilinib, turli tillarda va madaniyatlarda amalga oshirilishi kerak.

7. Iqtisodiy omillar va ularning ta’siri

Odam savdosining ildizlarida qashshoqlik, ishsizlik va ijtimoiy tengsizlikda, ijtimoiy himoyaga muhtojlik yotadi. Davlatlar va xalqaro tashkilotlar odam savdosiga qarshi kurashish uchun iqtisodiy rivojlanishga e’tibor qaratishsa bu birmuncha kamayishi mumkin. Xalqaro huquqiy tizim davlatlarga ijtimoiy xavfsizlikni ta’minalash va zaif guruhlarni qo‘llab-quvvatlash uchun iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish bo‘yicha tavsiyalar berishi

kerak. Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy tashkilotlar kambag‘allikni kamaytirish va ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish uchun o‘z hissasini qo‘sish kerak.

Xulosa qilib aytganda, odam savdosiga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro huquqiy masalalar faqatgina jinoyatchilarni javobgarlikka tortish bilan cheklanibgina qolmay, ushbu jinoyatning oldini olish, uni yuzaga kelishi uchun sabab bo‘luvchi omillarni bartaraf etish maqsadga muvofiqdir. Shuni ta’kidlash joizki, davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish, texnologiyalardan foydalanish, iqtisodiy tengsizlikni bartaraf etish va qurbanlarni reabilitatsiya qilish xalqaro huquqning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu jarayon xalqaro hamjamiatning uzviy va doimiy sa’y-harakatlarini talab etadidi. Xalqaro huquq, shuningdek, odam savdosining oldini olish va bunga qarshi kurashishda davlatlarning mas’uliyatini oshirishda asosiy rol o‘ynaydi.

REFERENCES:

1. Карабаев И. Одам савдоси жинояти, унинг келиб чиқиши сабаблари ва одам савдосини олдини олиш масалалари. 2022 йил 27 январь.<https://yangiobod.jizzax.uz/yangiliklar1397-odam-savdosi-zhinoyaati-uning-kelib-chiishsabablari-va-odam-savdosini-oldini-olishmasalari.html>
2. Абдушукурова И.К., Самадов Б.К. О мерах по борьбе против торговли людьми // Научный журнал. 2016 №5(7). С.140-141. <https://scientificmagazine.ru/images/PDF/2016/7/Nauchnyj-zhurnal-6-7.pdf>
3. Абдушукурова И.К. Противодействие торговле женщинами и методы профилактики // Вестник науки и образования. 2020. №10 (88). Часть 3. С.39-42. <https://cyberleninka.ru/article/n/protivodeystvie-torgovlezhenschinami-i-metody-profilaktiki/viewer>
4. Корсикова Н.А. Торговля людьми как актуальный подвид организованной преступности //Современная наука. 2011. №1(4). - С.30-32.